

ZAMONAVIY YOSHLAR MUAMMOLARIGA KOMPLEKS YONDOSHUV

Kudratova Lola Ravshanovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dots, phd

Annotatsiya Ushbu maqolada , dunyo yoshlari orasida uchraydigan turli ko'rinishdagi muammolarni ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Statistic tahlillar va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari bilan asoslangan. Muammoga qisman nazariy yondoshuv hamda amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik salomatlik, mafkuraviy ta'sir, yoshlar kommunikativ muammolar, agressiya, depressiv holatlarni boshqarish.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические механизмы различных проблем среди молодежи во всем мире. Она основана на статистическом анализе и данных международных организаций. Предложен частично теоретический подход к проблеме и сформулированы практические рекомендации.

Ключевые слова: Психологическое здоровье, идеологическое влияние, коммуникативные проблемы молодежи, агрессия, управление депрессивными состояниями.


Annotation This article analyzes the socio-psychological mechanisms of various problems among young people around the world. It is based on statistical analysis and data from international organizations. A partial theoretical approach to the problem and practical recommendations are formulated.

Keywords: Psychological health, ideological influence, youth communicative problems, aggression, management of depressive states.

KIRISH Yoshlar muammolari global xarakterga ega bo'lib, ularni hal qilishda kompleks yondashuv zarur. UNICEF va UNESCO tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni qo'llab-quvvatlashda ta'lim, psixologik yordam va ijtimoiy siyosat uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda 1,2 milliarddan ortiq (10–19 yosh) yoshlar mavjud, bu mehnatga yaroqli aholining 24 foizi demakdir. Har yili o'rtacha bir million o'smir o'z joniga qasd qiladi. Har etti nafar yoshdan bir nafari ruhiy salomatlik muammolaridan aziyat chekadi. Xalqaro tashkilotlar keltirgan ma'lumotlarda esa past va o'rta daromadli davlatlarda yoshlarning 75% psixologik yordamga muhtoj ekanligi ko'rsatilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Ostona shahrida "Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari" bo'yicha kengashning oltinchi sammitida nutq so'zlab, mamlakatlar radikal g'oyalarning keng xurujiga yanada ko'proq to'qnash kelayotganiga e'tibor qaratdi. Bugungi

kunda buzg'unchi kuchlar targ'ibot va mafkuraviy ta'sirning yangi uslublaridan foydalangan holda ekstremistik tashkilotlarga yoshlarni faol jalb etayotganligini alohida ta'kidladi. O'z navbatida bu kabi muammolarni oldini olish va yosh avlodni radikalizmdan asrash, ularning kuch-g'ayrat va shijoatini bunyodkorlik sari yo'naltirish uchun tizimli hamkorlik zarurligi, o'g'il-qizlarimiz o'z kuchiga ishonishi, adolatli kelajakni qaror toptirishda o'z ishtirokini his etishi, o'z salohiyat va umidlarini amalda ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lishi uchun barcha choralar ko'rilishi kerakligini qayd etdi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 15 dan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar ishsizlikdan qiynalmoqda. Tadqiqodlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo yoshlari orasida o'qishni, ishlashni xohlamaydiganlar soni ham ko'payishda davom etmoqda. Zamonaviy yoshlar bilimi va salohiyati jihatidan milliy taraqqiyotning muhim resursi ekani tan olingani holda, ayrim mamlakatlarda yoshlar orasida ishsizlik yuqori darajada.

Yangi O'zbekistonda yoshlar muammolarini bartaraf etish uchun yoshlar siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar amaliy yechimlar ustida faol strategic harakatlar amalga oshirilmoqda deyish mumkin. Yoshlar jamiyatning eng faol, biroq eng himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va kasbiy shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq. Shu sababli yoshlar muammolari ijtimoiy psixologiyaning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. UNESCO tadqiqotlari yoshlar muammolarini asosan ta'lim bilan bog'laydi.



Bugungi kunda yoshlar orasida uchraydigan asosiy muammolar:

- ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar
- o'z-o'zini anglashdagi inqirozlar
- kommunikativ muammolar
- agressiya va depressiv holatlarni boshqarish
- motivatsiyaning pasayishi

Yoshlarda ijtimoiy adaptatsiya — bu ularning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni egallashi va atrof-muhit bilan samarali munosabat o'rnatish jarayonidir. Ushbu jarayonda turli muammolar yuzaga kelishi mumkin va ular psixologik, ijtimoiy hamda madaniy omillar bilan bog'liq.

Ijtimoiy adaptatsiya — bu shaxsning yangi ijtimoiy muhitga moslashishi, jamiyat qoidalari, qadriyatlari va normalarini qabul qilish jarayonidir. Bu jarayon ayniqsa o‘smirlik va yoshlik davrida murakkab kechadi.

Yoshlarda ijtimoiy adaptatsiya muammolari sifatida quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin:

1. Psixologik muammolar:

O‘ziga ishonchsizlik, o‘z-o‘zini past baholash, ijtimoiy qo‘rquv (ijtimoiy fobiya), stress va depressiv holatlar. Bu holatlar ko‘pincha tengdoshlar bilan muloqot qilishni qiyinlashtiradi.

2. Muloqot muammolari:

- Ijtimoiy ko‘nikmalar yetishmasligi
- Konfliktlarni hal qila olmaslik
- Empatiya pastligi

Natijada yoshlar jamoaga moslashishda qiynaladi.

3. Ta’lim muhitiga moslashish

- Yangi maktab yoki universitetga ko‘nikolmaslik
- O‘qituvchi va tengdoshlar bilan muammolar
- O‘quv yuklamasiga moslasha olmaslik

4. Madaniy va ijtimoiy muhit ta’siri

- Urbanizatsiya va migratsiya
- Globalizatsiya ta’siri
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘liqlik. Bu yoshlarning real hayotdagi ijtimoiy aloqalarini kamaytiradi.

5. Oilaviy omillar

- Ota-ona bilan nizolar
- Noto‘g‘ri tarbiya usullari (avtoritar yoki befarq)
- Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning nosog‘lomligi

3. Muammolarning oqibatlari

- Deviant xulq-atvor (agressiya, huquqbuzarlik)
- Yakkalanish (izolyatsiya)
- Psixologik buzilishlar
- O‘qish va ish faoliyatida muvaffaqiyatsizlik

Yuqoridagi holatlar tahlilidan kelib chiqib, bir qancha maslahat va tavsiyalar keltirib o‘tmoqchimiz:

Psixologik yordam

- Individual va guruhiiy konsultatsiyalar
- Treninglar (muloqot, stressni boshqarish)

Ta'limiy yondashuv: Interfaol metodlar, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari

Oila institutlari:

- Ota-onalar bilan psixologik maslahatlar
- Oilaviy terapiya

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

- Yoshlar markazlari
- To'garaklar va ijtimoiy loyihalar

Amaliy tavsiyalar:

- Yoshlar uchun trening va motivatsion dasturlar
- Bandlikni oshirishga qaratilgan loyihalar
- Ota-onalar bilan psixologik ishlar
- Raqamli savodxonlikni rivojlantirish

Xulosa. Yoshlarda ijtimoiy adaptatsiya muammolari murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Ularni samarali hal qilish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorligi zarur. Psixolog sifatida esa yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va sog'lom muhit yaratishga yordam berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTH LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(10), 368-374.
- [2] Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from. <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
- [3] YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
- [4] Kudratova L.R Uyushmagan yoshlar ijtimoiy psixologik portretining o'ziga xos xususiyatlari: psixol.f.f.d diss. Avtoreferati. T.TDPU, 2024. –223.6
- [5] Schwartz, S. H. (1992). Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests. Advances in Experimental Social Psychology, 25, 1–65.
- [6] John, O. P., & Srivastava, S. (1999). The Big Five trait taxonomy: History, measurement, and theoretical perspectives. Handbook of Personality, 102–138.
- [7] International Labour Organization. (2023). Global employment trends for youth.
- [8] Diener, E., Oishi, S., & Lucas, R. E. (2015). National accounts of subjective well-being. American Psychologist, 70(3), 234–242.